

ILK HUQUQSHUNOS O'ZBEK AYOLI – XADICHA SULAYMONOVA

Xakimxo'jayeva Sevd Kamol qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi

sevdokakimxojayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk o'zbek huquqshunos ayoli, yuridik sohaga beqiyos hissasini qo'shib kelgan, o'zbek tarixida ilm-fan, huquq va davlat boshqaruvi faoliyatining rivojlanishida asosiy ro'l o'ynagan olimalarimizdan biri Xadicha Sulaymonova haqida so'z boradi. Akademik Xadicha Sulaymonova o'z kasbiy faoliyati davomida O'zbekiston SSRning ayni ko'zga ko'ringan yosh huquqshunoslaridan bo'lib, o'z tajriba, bilim va salohiyati bilan butun jamiyat, ayniqsa Markaziy Osiyo ayol-qizlarining huquq va erkinliklarini xalqaro darajada himoya qila olishga muvaffaq bo'lgan olimalarimizdan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: akademik, SSR Oliy sud raisi va Adliya Vaziri, huquqshunos, rektor, xalqaro konferensiyalar, dissertatsiyalar.

Abstract: This article is about Khadicha Sulaymanova, the first Uzbek woman lawyer, one of our scholars who made an invaluable contribution to the legal field and played a key role in the development of science, law and public administration in Uzbek history. Academician Khadicha Sulaymanova was one of the outstanding young lawyers of the Uzbek SSR during her professional career and is considered one of our scholars who, with her experience, knowledge and potential, managed to protect the rights and freedoms of the entire society, especially the women and girls of Central Asia, at the international level.

Keywords: academician, Chairman of the Supreme Court of the SSR and Minister of Justice, lawyer, rector, international conferences, dissertations

Аннотация: Данная статья посвящена Хадиче Сулеймановой, первой узбекской женщине-юристу, одной из наших ученых, внесшей неоценимый вклад в юридическую сферу и сыгравшей ключевую роль в развитии науки, права и государственного управления в истории Узбекистана. Академик Хадича Сулейманова была одной из выдающихся молодых юристов Узбекской ССР на протяжении своей профессиональной карьеры и считается одной из наших ученых, которая своим опытом, знаниями и потенциалом сумела защитить права и свободы всего общества, особенно женщин и девочек Центральной Азии, на международном уровне.

Ключевые слова: академик, председатель Верховного суда ССР и министр юстиции, юрист, ректор, международные конференции, диссертации.

KIRISH

Davlat va jamiyatning asosiy tayanchi mamlakatdagi qonunlarning aniqda ishlashi, ularning inson manfaatlari foyidasiga qabul qilinishi hamda huquq sohasidagi har bir amalga oshirilayotgan islohotlar adolatli bo'lishini talab etadi. Shu nuqtai nazarda o'zbek tarixida ilm-fan, huquq va davlat boshqaruvi sohalariga o'z hissasini qo'shib kelayotgan olim-olimalarimiz ham yo'q emas. Shular orasida o'zining butun hayoti bilan adolatni himoya qilgan, jasorati bilan huquq sohasida yangi cho'qqilarni zabt etgan buyuk siymolarimizdan biri – Xadicha Sulaymonovadir. U nafaqat huquqshunos olim, balki ayollarning yuridik sohadagi o'rne va nufuzini oshirishga yo'l ochgan fidoyi, adolatparvar ayol bo'lib, har bir qiz va ayollarning huquq va erkinliklarini xalqaro darajada himoya qilgan olimalarimizdan hisoblanadi.

XX asr boshlari, SSSRning o'tkazayotgan islohotlaridan aziyat chekayotgan insonlar orasidan Andijon taraflarga bir sayyoh yigit keladi. Ismi Sulaymonqul Kelginboyev. U bir mahallaga kelib joylashadi, yashaydi va mahalla a'zolari bilan tanishadi. Mahalladagi eng ziyoli oilaning qizi Otincha bibiga ko'ngil qo'yadi va bir yil o'tar-o'tmas Otincha bibiga uylanadi. 1913-yilning jazirama yoz kunlarida Xadicha tavallud topadi. Xadicha tug'ilishi bilan o'tkir nigoh, chuqur qarashlar sohibasi edi. Xadicha 1924-yil akasi Yusuf, opasi Mo'tabar, ukasi Niyoz bilan teng maktabga borishadi. Matonat sohibamiz yoshlik chog'lardan o'qishga qiziquvchan bo'lib ulg'aydi va doim onasidan otasi qanday inson bo'lgani haqida so'rar edi. Otasidan erta ayrilganligi sababli yosh qizaloq ko'pgina tillarni o'rganishni istar, ammo imkoniyati bo'lmasdi. Otasi Sulaymon 1919-yil Andijon shahriga bostirib kirgan qurolli bosqinchilar o'qidan halok bo'ladi. Xadichaning orzu-maqсадlari tomon ilk qadamlarini bosishiga esa Nurxon voqeasi sabab bo'lib qolgan edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XX asr o'rtalari SSSRning murakkab islohotlar davrida, ayniqsa, 1926-yil o'zbek zamiriga paranjini yechib tashlash to'g'risidagi hujum kompaniyalari boshlandi. Bu islohot sababli barcha ayollar paranjini tashlaydilar, shu qatori iste'dodli san'atkor Nurxon ham. O'sha paytning yonmas olovi hisoblangan Nurxon hayotida 1926-yil mas'um voqea ro'y beradi (sahnaga paranjisiz holda chiqadi. Ornomusga chidolmagan akasi Nurxonni pichoqlab tashlaydi). Nurxonning akasining jinoyati ochiq sud muhokamasi ko'riladi. Sud majlisida Xadicha Sulaymonovanning ustozlari Tojixon Shodiyeva bilan birgalikda nutq so'zlaydilar. Uyga shoshib yugurib kelgan Xadicha: "Aya, huquqshunos bo'laman" – deydi, onasi esa bu qiyin kasb

ekanligi, ayniqsa, ayol kishi uchun murakkab soha ekanligini aytib o'tadi. Ammo yoshligidan qat'iylik ruhida katta bo'lgan Xadicha huquqshunoslik kasbi uchun harakat qilishni boshlaydi va Sovet Qurilish va Huquq ilmiy-tadqiqot institutining tayyorlov bosqichiga o'qishga kiradi. Bir yildan so'ng uzoq ilmiy mehnat qilib, Jahon Obidova nomidagi Sovet Qurilish va huquqiy ilmiy-tadqiqot instituti ikkinchi kursiga qabul qilinadi. Uning huquqshunoslik sohasiga kirib kelishi ayni shu voqeadan boshlanadi.

Xadicha Sulaymonovaning huquqshunos bo'lish orzusi 1931-yilda Toshkent shahriga yetaklaydi. O'sha davrda ilk bor Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. Institutni bitirishida esa shaxsan O'zbekiston Markaziy Ijroya Komitetining raisi Yo'ldosh Oxunboboyev qo'lidan bitiruv diplomini oladi. 1938-yilda esa Moskva yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasida aspiranturasiga qabul qilinadi. Institutni tamomlab Toshkent yuridik institutida uzoq yillar o'qituvchilik qiladi, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist Yakov Yefimovich Pesin Xadicha Sulaymonovaning aspirantlik davrlarini eslab shunday deydi: "Kamtar, istarasi issiq bu qiz o'zining xushmuomilaligi va o'qishga, o'rganishga bo'lgan havasi bilan hammamizga yoqib qolgan edi. Uning ilmiy rahbari dunyoga tanilgan olim, SSSR Fanlar Akademiyasining muxbir-a'zosi, yuridik fanlar doktori, professor A.I.Traynin edi. U o'qish davrida falsafa, davlat va huquq nazariyasi, jinoyat huquqi ixtisosi, shuningdek, chet tillari bo'yicha barcha nomzodlik imtihonlarini a'lo baholarga topshirgan edi."

Akademik Xadicha Sulaymonova bu bilan to'xtab qolgan emas, u 1945-yilda dissertatsiyalarini himoya qilib, huquqshunoslik sohasida ilmiy daraja unvonini olgan birinchi o'zbek ayoli bo'lib tarixda qoladi. Huddi shu yili Toshkent yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasiga rahbar etib tayinlanadi. Keyinchalik, 1954-yillarga kelib rektor lavozimiga ko'tariladi. Xadicha Sulaymonova o'z faoliyati davomida har bir jamiyatda ayol kishi qanday fazilatlarga ega bo'lsa, barchasiga ega insonlardan biri bo'lgan. U yashagan yillari davrida xalq sudyasi bo'ldi, u nafaqat sudyalik qildi, balki jamiyatdagi huquqbuzarliklarga barham berish, fuqarolarga adolatli sudya qanday bo'lishligini yaqqol isbotlab beradi. Nihoyat, sudyalikdan O'ZSSR Oliy sud raisi lavozimiga ko'tarildi. Faoliyati davomida jinoyat sohasiga bo'yicha darsliklar yozdi, 16 dan ortiq dissertatsiyalar, 80 dan ziyod ilmiy-ommabop maqolalar, jumladan 3 tomdan iborat "O'zbekiston sovet davlati va huquqi tarixi" nomli kitob chop ettiradi. Xadicha Sulaymonova yashab o'tgan yillarda bunday darajaga erishish barchamizni ayratda qoldiribgina qolmay, balki olim-u, huquqshunoslar orasida ham turli xil e'tiroflarga sazovor bo'ladi.

Ilk huquqshunos ayol Xadicha Sulaymonova taqdiriga nazar solganda, uning hayot yo'li huquqshunsolik fanining rivojlanishi, ayollarning huquqiy tafakkuriga qo'shgan hissasi va jamiyatda adolat tamoyillarining qaror topishini ifodalovchi yuksak tarixiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Uning taqdiri bugungi avlod uchun ham ibrat, ham ma'naviy me'zon bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengash. Uch mashhur o'zbek ayoli. – Toshkent: Sudyalar oliy kengashi nashryoti, 2022.-23-40-b.
2. Xadicha Sulaymonova – huquqshunos olim, davlat arbobi. M.Hakimov, G'.Ahmedov, A.saidov. T.:O'zbekiston,1993.-151-b.
3. M.Kh.Hakimov. Academician Khadija.- Justice.-Tashkent,1972.
4. <https://sudexpert.uz> Бекобод Узоқов.мақола."Дунёда биринчи марта Олий судни бошқарган ўзбекистонлик аёл ҳақида биласизми".